

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA TERMİK KUYISHLARNING
TARQALISHIDA GIGIYENIK VA TIBBIY-IJTIMOY OMILLARNING TA'SIRINI
O'RGANISH VA BAHOLASH**

Dadabayeva Parizoda Uygunovna

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

parizoddadabayeva@gmail.com

Muhammadjon Jaloliddinov G'ulomjon o'g'li

Fjsti 2-bosqich talabasi

muhammadjonjaloliddinov8@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17910245>

So'nggi yillarda bolalar o'rtasida jarohatlanishlar tarkibida termik kuyishlar ulushi ortib bormoqda. Ayniqsa, maktabgacha yosh davrida fiziologik rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlari, nerv tizimi yetilmaganligi, xavf-xatarni mustaqil baholash qobiliyatining sustligi ularni tashqi muhit omillariga nihoyatda sezgir qiladi.

Uy sharoitidagi xavfsizlik qoidalariga rioya etilmasligi, sanitariya-gigiyenik muhitning talab darajasida emasligi, ota-onalarning tibbiy bilimlari yetarli emasligi kuyishlar bilan bog'liq shikastlanishlar xavfini yanada oshiradi. Shu bois, maktabgacha yoshdagi bolalarda termik kuyishlar tarqalishiga ta'sir etuvchi gigiyenik va tibbiy-ijtimoiy omillarni kompleks tarzda o'rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda termik kuyishlar tibbiyot amaliyotida eng ko'p uchraydigan shikastlanish turlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yosh davri fiziologik va psixologik rivojlanishning o'ziga xos bosqichi bo'lib, bolalarda xavf-xatarni anglash mexanizmlari to'liq shakllanmagan bo'ladi.

Natijada ular issiq suyuqliklar, ochiq olov yoki elektr isitish moslamalari bilan bexosdan aloqaga kirishib, og'ir darajadagi jarohatlar olish xavfiga ko'proq duch kelishadi.

Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, termik kuyishlarning yuzaga kelishida uy-joy sharoitlarining sanitariya-gigiyenik holati muhim rol o'ynaydi. Tor, yomon shamollatiladigan hamda ortiqcha jihozlar bilan to'ldirilgan xonalar bolalar uchun yuqori xavf zonasi hisoblanadi.

Oshxona va isitish moslamalari joylashgan hududlarda maxsus himoya vositalarining o'rnatilmaganligi ham kuyish ehtimolini oshiruvchi asosiy omillardan biridir. Ijtimoiy omillar ham termik kuyishlar tarqalishida muhim ahamiyatga ega.

Jumladan, ota-onalarning bandligi, bolalarga yetarli darajada vaqt ajratilmasligi, oiladagi ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklar ham bolalar xavfsizligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ota-onalarning tibbiy savodxonligi past bo'lgan oilalarda kuyish holatlari sezilarli darajada ko'p uchraydi.

Bundan tashqari, bolalarni nazoratsiz qoldirish holatlari, bolalarning issiq buyumlar bilan o'ynashi va potentsial xavf tug'diruvchi ko'nikmalarni erta yoshdan shakllantirmaslik ham termik kuyishlarning keng tarqalishiga sabab bo'lmoqda. Shu munosabat bilan profilaktika choralari tizimini kuchaytirish va aholi o'rtasida gigiyenik madaniyatni oshirish zarurati yuzaga kelmoqda.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari maktabgacha yoshdagi bolalarda termik kuyishlar ko'p omilli jarayon ekanligini ko'rsatdi.

Kuyishlar rivojlanishida sanitariya-gigiyenik sharoitlar, uy sharoitida xavfsizlik qoidalariga rioya etilishi va ota-onalarning tibbiy savodxonligi muhim o‘rin tutadi. Issiq suyuqliklar va ochiq olov manbalarining bolalar erkin yetib boradigan joylarda joylashtirilishi kuyish holatlarining ko‘payishiga sabab bo‘layotgani aniqlandi.

Ushbu muammoni bartaraf etish uchun profilaktik tadbirlarni kuchaytirish, ota-onalar o‘rtasida ma’rifiy ishlarni kengaytirish va uy sharoitida bolalar xavfsizligini ta’minlash zarurligi asoslandi. Olingan natijalar termik kuyishlarning oldini olish bo‘yicha samarali strategiyalar ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. World Health Organization. Burn prevention: success stories and lessons learned. Geneva, 2011.
2. American Burn Association. Burn incidence and treatment in pediatric population. Chicago, 2015.
3. Rossiter N., Pearce A. Pediatric burns: epidemiology and prevention strategies. Journal of Injury Prevention, 2017.
4. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi. Bolalar travmatizmi va kuyishlarning oldini olish bo‘yicha metodik qo‘llanma. Toshkent, 2019.
5. G‘ofurov B.G‘., Karimova M.A. Bolalarda termik shikastlanishlar va ularning profilaktikasi. Toshkent: “Tibbiyot nashriyoti”, 2018.